

## HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH SAMARADORLIGI VA MEZONLARI

*Meliyev Ma'ruf Qiyomjonovich  
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri*

**Annotatsiya:** Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi ushbu jarayonning barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarning vatanparvarlik darajasiga qay darajada ijobjiy ta'sir etgani bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** Mafkura, harbiy burch, omillar, intizom, mukofot, harbiy muzeylear, ma'naviy rag'batlantirish.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi samaradorlik darajasini aniqlashning muhim sharti yoshlarda vatanparvarlik, harbiy burch, jangovar an'analarga sodiqlik kabi xislatlarning real holatda yanada rivojlanishi va takomillashuviga ijobjiy ta'sir etadigan omillarni muntazam ravishda hisobga olib, tahlil etib borishdan iborat.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim mezonlaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlod oldiga jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bu borada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ma'no-mazmuni, shakl va usullari bilan qay darajada mutanosib ekani bilan belgilanadi. Yetti, o'n olti yoshdagilar o'quvchilarning Vatanga muhabbatni va sadoqatini mustahkamlash, ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobjiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko'tarish, yoshlarning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, keng dunyoqarishli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi. bular quyidagi bosqichlarda ko'rishimiz mumkin:

Zamonamiz qahramonlari haqidagi maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish;

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, mavzuli kechalar va qo'shiq tanlovlari tashkil etish, spektakllardan lavhalar namoyish qilish;

O'quvchi yoshlar ishtirokida "Vatanimni ko'z qorachig'idek asrayman", "Yurt taqdiri- mening taqdirim" mavzularida insholar tanlovini tashkil etish;

Darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarga buyuk sarkardalarning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni kiritish, ularning jasorati, fidoyligi va qahramonligi to'g'risida yorqin misollar asosida hikoya qilib berish;

Temurbeklar maktablari, oliy harbiy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning maxsus guruhlari va harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil etish

“Mard o‘g‘lon ” davlat mukofatiga sazovor bo‘lgan yurtdoshlarimiz bilan uchrashuvlar o‘tkazish, ular erishgan yutuq va natijalarni yoshlari o‘rtasida keng targ‘ib qilish;

Birinchi prezidentimizning “ Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch ” asarida “ Ham ajdodlarimiz o‘z ona yurtlari uchun qo‘sghan hissalari haqida juda ko‘p ma’lumotlar keltirilgan masalan, Chingizzon zulmiga qarshiliklar Amir Temur jasorati Jaloliddin Manguberdi va boshqa buyuk sarkardalar haqida ma’lumotlar berilgan.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi ushbu jarayonning barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarning vatanparvarlik darajasiga qay darajada ijobjiy ta’sir etgani bilan belgilanadi.

Yoshlarning o‘z tanlagan kasbini puxta egallashi va yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun yaqindan ko‘maklashish. Harbiy xizmat sharoitlariga moslashish va harbiy ixtisosliklarni puxta egallash, har qanday qiyinchilikka tayyor turish, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlash, qurol-aslaha, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlash, harbiy texnika, davlat va harbiy mulkni asrab-avaylash ko‘nikmalarni rivojlantirish;

Jangovar tayyorgarlik va harbiy mahoratni muntazam oshirib borish, harbiy jamoada qaror topgan o‘zaro yordam va do‘stona munosabatlarni qadrlash kabi fazilatlarni shakllantirish. Yoshlarning o‘z tanlagan kasbini puxta egallashi va yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishni uchun yaqindan ko‘maklashish;

Kitobxonlikni keng targ‘ib etish, jamiyatda yuksak ma’naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning roli va ahamiyatini yoshlari ongiga singdirish. Milliy mafkuramizga zid bo‘lgan yot g‘oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o‘ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg‘ularini mustahkamlash;

Yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o‘zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas’uliyatini his etish, qat’iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat’iyatli bo‘lishga o‘rgatish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda berilayotgan imkoniyatlardan unimli foydalangan holda Vatanga sadoqat va yetuk inson qilib shakllanishida maktab ta’limi Oliy o‘quv yurtining o‘rni beqiyosdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydaggi 320-sonli qarori.
- 2.Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 23.02.2018-yil.